

**JAMIYATDA AHOLINING IJTIMOIY JIHATDAN EHTIYOJMAND  
TOIFALARI BELGILANMOQDA.  
ULAR KIMLAR BO`LISHI MUMKIN.**

**Po'latova Shamshoda Zokirjonovna.<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Toshkent Davlat Yuridika universiteti  
Ommaviy huquq fakulteti 1 kurs talabasi

**MAQOLA  
MA'LUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**

Received: 16.11.2024

Revised: 17.11.2024

Accepted: 18.11.2024

Jamiyatning barqaror rivojlanishi va farovonligi ko`p jihatdan unda yashayotgan, is'teqomat qilayotgan aholi orasidagi tengsizlikni kamaytirishga va ij'timoiy adolatni ta'minlashga bog`liq bo`ladi.

**KALIT SO'ZLAR:**

Ijtimoiy ehtiyojmandlik – bu shaxning yoki oilaning moddiy, ma`naviy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarining cheklanganligi bilan tavsiflanadi..

**KIRISH.** Jamiyatning barqaror rivojlanishi va farovonligi ko`p jihatdan unda yashayotgan, is'teqomat qilayotgan aholi orasidagi tengsizlikni kamaytirishga va ij'timoiy adolatni ta'minlashga bog`liq bo`ladi.

Bu maqsadga erishish uchun, avvalo, aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalari aniqlash va ularga yordam ko`rsatish zarur.

Ushbu maqolada biz aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarini ko`rib chiqamiz, ularning xususiyatlarini o`rganib, tahlil qilib chiqamiz. Ehtiyojmand toifalarning jamiyatda uchraydigan asosiy guruhlarini aniqlaymiz.

**IJTIMOIY EHTIYOJMANDLIK TUSHUNCHASI NIMA?**

Ijtimoiy ehtiyojmandlik – bu shaxning yoki oilaning moddiy, ma`naviy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarining cheklanganligi bilan tavsiflanadi.

## IJTIMOIY EHTIYOJMANDLIK:TA'RIFI VA ASOSIY SABABLARI.

1. **Iqtisodiy sabablari:** Ishsizlik,past maoshlar,iqtisodiy inqirozlar
2. **Ta'lim va malaka yetishmasligi:** Ta'lim olish imkoniyatining cheklanganligi,malakasiz ishchilar
3. **Sog`liq muammolari:** Kasalliklar,invalidliklar va boshqa sog`liq muammolari
4. **Ijtimoiy izolyatsiya:** Ijtimoiy tarmoqning yetishmasligi,oil ava do`stlik aloqalarini o`rnata olmaslik va bu holatni amalga oshirishdagi kamchiliklar:

**Siyosiy sabablar:** Tizimda bo`ladigan adolatsizliklar,kamsitishlar va shunga o`xshagan xunuk holatlar.

## AHOLINING IJTIMOIY JIHATDAN EHTIYOJMAND GURUHINING ASOSIY TOIFALARI

### 1) KAM TA'MINLANGAN OILALAR.

Kam ta'minlangan oilalar-bu daromadi belgilangan minimal yashash darajasidan past bo`lgan oilalar kiradi.Bu toifaga quyidagilar kirishi mumkin.

- **Ihsiz oila a'zolari bor toifalar**
- **Ko`p bolali oilalar**
- **Yolg`iz ota yoki onali oilalar**
- **Past malakali ishchilar oilalari**

Bunday oilalar ko`pincha oziq-ovqat,kiyim-kechak,uy-joy va tibbiy xizmatlar kabi asosiy ehtiyojlarni qondirishda qiyinchiliklarga duch keladi.AsoSAN,ularning topgan daromadlari oila a'zolarining kundalik xarajatiga ya'ni ovqatlanishiga yetadi.Ularga davlat tomonidan moddiy yordam,oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan ta'minlash,kommunal to`lovlar bo'yicha imtiyozlar,bolalarini maktabgacha ta'lim muassalariga bepul joylashtirish,o'quvchilarni bepul maktab o'quv qurollari bilan ta'minlash kabi moddiy va ijtimoiy yordamlar berilib boriladi.

### 2) NOGIRONLIGI BO`LGAN SHAXSLAR

- Nogironligi bo`lgan shaxslar jamiyatning eng zaif qatlamlaridan biri hisoblanadi.Ularga quyidagilar kiradi.
  - **Jismoniy nogironligi bo`lgan shaxslar**
  - **Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo`lgan shaxslar**
  - **Sezgi organi(ko`rish,eshitish) buzilgan shaxslar**

Bu toifadagi shaxslar ish topish, ta'lim olish va jamiyat hayotida to'liq ishtirok etishda ko`plab qiyinchiliklarga duch keladi. Ularga davlat tomonidan ko`plab yordamlar beriladi masalan:

- Nogironlik nafaqasini to`lash
- Reabilitatsiya markazlarini tashkil etish
- Imtiyozli shartlarda davolanish va sanatoriy-kurort xizmatlari
- Ish bilan ta'minlashdagi imtiyoz va yengilliklar
- Jamoat joylarida qulay muhit yaratish
- Inklyuziv ta'limni rivojlantirish

### 3) KEKSALAR VA YOLG`IZ QARIYALAR

Keksalar, ayniqsa yolg`iz yashovchi qariyalar, ijtimoiy himoyaga muhtoj bo`lgan yana bir muhim guruhlardan biri. Ularga quyidagilar kiradi.

- **Pensiya yoshidagi shaxslar**
- **Yolg`iz yashovchi keksalar**
- **Surunkali kasallikkleri bor keksalar**

Bu toifadagi shaxslar ko`pincha tibbiy xizmatdan, parvarish va ijtimoiy a'lloqaga va himoyaga bo`lgan ehtiyojlarni his qiladi.

Bu toifadagi shaxslarga ham davlat tomonidan anchagina yordamlar ko`rsatilyapti masalan:

- Pensiya ta'minoti
- Imtiyozli tibbiy xizmat
- Sanatoriy-kurort davolanishi uchun imtiyozli yo'llanma
- Keksalar uchun maxsus pansionatlar

### 4) YETIM BOLALAR VA OTA-ONA QARAMOG`ISIZ QOLGAN BOLALAR

Bu toifa vakillari ham juda ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand sanaladi va ularga quyidagi toifalar kiradi.

- To`liq yetim bolalar
- Ota-onasi qaramog`idan tashlab ketilgan bolalar
- Ota-onasi qamoqda bo`lgan bolalar
- Ota-onasi nogiron bo`lgan bolalar

Bu bolalar ko'pincha moddiy ta'minot, ta'lim olish va psixologik yordam olishda qiyinchilikarga duch keladi. Bu toifa vakillariga ham davlatimiz tomonidan anchagina qulaylik va shart-sharoitlar yaratilgan masalan:

- Mehribonlik uylari va SOS bolalar shaharchasini tashkil etish
- 
- Bepul ta'lim va tibbiy xizmat ko'rsatish
- Uy-joy bilan ta'minlash
- Ijtimoiy moddiy yordam bilan ta'minlash
- Huquqiy himoya qilish

#### 5) ISHSIZLAR

Ishsizlar toifasiga mansub vakillari odatda mehnatga layoqatli, ammo ish bilan band bo'limgan va daromad manbayiga ega bo'limgan fuqarolar kiradi. Bu toifaga quyidagi shaxslar xos:

- Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassalarini bitirgan, ammo ish topa olmayotgan shaxslar
- Ishdan bo'shatilgan va ish o'rnini topa olmayotgan shaxslar
- Uzoq vaqt ishsiz bo'lgan shaxslar

Davlatimiz ishsiz bo'lgan shaxslarga yordam berish choralarini topgan ular quyidagilar ko'rinishida bo'lishi mumkin;

- Ishsizlik nafaqasini to`lash
- Kasb-hunar o'rgatish va qayta tayyorlash
- Ishga joylashtirish bo'yicha yordam
- Jamoat ishlarini tashkil etish
- Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va kam foizli mikrokreditlar ajratish (kam foizli issiqxonalar, tikuv mashinalari)

#### 6) KO`P BOLALI OILALAR

O'zbekistonda 4 ta va undan ortiq farzandi bo'lgan oilalar ko'p bolali oilalar hisoblanadi. Bu toifadagi oilalarga xos xusussiyatlar:

- Oila budgetining cheklanganligi
- Uy-joy sharoitlarining yetishmasligi
- Ota-onalarning ish bilsn bandlik muammolari

Ko'p bolali oilalarga ham davlatimiz iloji boricha yordamlar ko'rsatyapti. Ularga misol qilib aytadigan bo'lsak;

- Bolalar nafaqasi

- Maktab o'quvchilarini bepul o'quv qurollari va formalar bilan ta'minlash
- Soliq imtiyozlari

### 7) YOLG`IZ ONALAR(otalar)

Yolg'iz ota yoki ona deganda-farzandini(farzandlarini)yakka o`zi tarbiyalayotgan,nikohda bo'lмаган ota yoki ona tushuniladi.Bu toifaga quyidagi shaxslar kiradi;

- Ajrashgan va aliment olmaydigan onalar(otalar)
- Turmush o`rtog`i vafot etgan shaxslar
- Nikohsiz tug`ilgan farzandlarning onalari

Yolg'iz ota yoki onalarga ko`rsatiladigan yordam choralar:

- Bolalar nafaqasi
- Ish bilan ta'minlashda imtiyozlarning belgilanishi
- Soliq imtiyozlari
- Huquqiy yordam va maslahatlar xizmatlari

### 8) IJTIMOIY XAVFLI AHVOLDAGI BO`LGAN OILALAR

Bu toifa vakillariga quyidagi aholi toifalari kiradi.

- Ota yoki onalari spirtli ichimliklar va giyohvand moddalarga ruju qo'ygan oilalar
- Oilalar zo`ravonlik kuzatilgan oilalar
- Ota-onalari tomonidan bolalariga nisbatan e'tiborsizlik va tazyiqlar bo`ladigan oilala va o'sha oila farzandlari

- Qamoqdan qaytdan shaxslar oilalari

Bunday oilalarga quyidagi yordamlar ko`rsatiladi;

- Ijtimoiy psixologik yordam
- Moddiy qo'llab-quvvatlash
- Huquqiy maslahatlar
- Bolalarni vaqtincha ijtimoiy muassalarga joylashtirish
- Ota-onalarini davolash va reabilitatsiya qilish

O`zbekistonda ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifa vakillari juda ham ko`p va davlat bu toifa vakillarini iloji boricha ham moddiy ham ma`naviy,ijtimoiy,iqtisodiy taraflama qo'llab-quvvatlashga harakat qilmoqda.Birgina 2024-yilda aholining taxminiy hisobda 20-25%ga ijtimoiy yordamlar ko`rsatilgan ammo raqamlar bo'yicha aniq ma'lumotlar

keltirilmagan.Bu yordamlar asosan pensiya,bolalar nafaqalari,nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan berilgan.

Yuqorida sanab o'tilgan toifa vakillariga turli xil ijtimoiy,iqtisodiy va psixologik muammolarga duch keladi va ular davlat tomonidan beriladigan yordamga muhtoj.

Davlat bu toifa vakillariga nafaqat moddiy yordam beradi yana ularning jamiyatda to'laqonli integratsiyalashuvini ta'minlash,ta'lim va ish bilan bandlik imkoniyatlarini kengaytirish,shuningdek,ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish orqali yordam beradi.

Davlatimiz tomonidan ijtimoiy himoya tizimini yanada rivojlantirish uchun quyidagi yo`nalishlarga e'tibor qaratilmoqda;

1. Ishsizlikni kamaytirish va mehnat bozorini rivojlantirish
2. Keksalar uchun ijtimoiy xizmatlarni kengaytirish
3. Bolalar huquqlarini himoya qilish tizimini mustahkamlash
4. Nogironligi bo`lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash va ularning jamiyatda ishtirok etish o`rnini kuchaytirish
5. Ijtimoiy xavfli ahvolda bo`lgan oilalar bilan ishslash mexanizmlarini takomillashtirish

Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi O`zbekistonda ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlash va aholining farovonligi va ularning yashash darajasini yaxshilashga yordam beradi.Aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalari ham yashash darjasini yaxshilab oladi.Bugungi kunda ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand oilalarga yordam berish maqsadida turli xil yangiliklar amalga oshirilmoqda masalan;”Ayollar daftari”,”Yoshlar daftari”,”Temir daftar” va shunga o`xshagan boshqa tuzilmalar joriy etilgan hamda ularga ijtimoiy jihatdan juda og`ir ahvoldagi oilalar,ayollar hamda bolalar kiritiladi va ularga davlar tomonidan har oyda pul mablag'lari va boshqa kerakli narsalar bilan ta'minlanib boriladi.